



## BUXORO VOHASINING TOSH DAVRI TARIXI (arxeologik manbalar asosida)

**ANNOTASIYA:** *Ushbu maqolada Quyi Zarafshon vohasida tosh davrining moddiy madaniyati tarixi, arxeologik tadqiqotlarning ilmiy tahliliy natijalari, O'zbekistonda va xorijda nashr etilgan ilmiy adabiyotlar, davriy jurnallardagi maqolalarda keltirilgan dalillar orqali ilmiy tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *Quyi Zarafshon, arxeologik tadqiqotlar, tosh davri, Moxondaryo, Darvozaqir.*

**Information about the authors** *Ochilov Alisher To'lis o'g'li  
t.f.f.d. (PhD)*

### KIRISH

Kishilik tarixining ilk bosqichlaridan boshlab dunyoning turli hududlarida bo'lgani singari Quyi Zarafshon vohasida ham insoniyat qo'nim topib, istiqomat qilib kelmoqda. Vohaning geografik xususiyatlari va tabiiy shart-sharoiti ibtidoiy jamoalarning turmush tarzi, mehnat faoliyati, moddiy va ma'naviy madaniyatiga ta'sir ko'rsatib, qadimgi odamlarning yashash turmush tarzi va xo'jaligining rivojlanishiga, mustahkamlanishiga sababchi bo'lgan. Insoniyatning ma'lum bir hududga kelib joylashishida tabiatning qonuniyatlariga bo'ysunganligidan, inson bilan tabiatning o'zaro aloqadorligini ko'rish mumkin. Shuning uchun ham moddiy va ma'naviy taraqqiyot yer sharining turli mintaqalarida turlicha kechgan.

Quyi Zarafshon (Buxoro) vohasi hududlarida antropogen landshaftning shakllanishi va rivojlanishi mezolit va neolit davridan boshlab bosqichma-bosqich amalga oshgan bo'lib, bunda tabiiy muhitning ta'siri muhim hisoblanadi. Bu yerda istiqomat qilgan aholi tabiatning ma'lum qonuniyatlariga bo'ysungan. Mehnat qurollarini yasash uchun toshga bo'lgan ehtiyojning yuqoriligi odamlarni asosan tog' yon bag'irlari, jarliklarning yoqalari, soy va boshqa suv havzalarining bo'ylarida istiqomat qilishga majbur qilgan.

### ASOSIY QISM

Tosh davrida istiqomat qilgan insonlar mehnat qurollari tayyorlashda texnikaviy kashfiyotlar qilganligi Navoiy viloyatining markazidan 22-25 km shimoliy-sharqda, Qoratov tog' tizmasining Voush tog'i janubiy yonbag'rida joylashgan Uchtut, Ijond qishloqlarida ibtidoiy odamlarning mehnat qurollar yasash ustaxonasi va chaqmoqtosh qazib olish konlarining topilishidan bilish mumkin[1]. Vaushtog'larining janubiy yon bag'ridagi qoyaning yuqori qismida 10-15 sm qalinlikda uzoq masofaga cho'zilgan chaqmoqtosh qatlami bo'lib, u ibtidoiy odamlarimizni o'ziga jalb qilgan[2]. Uchtut qishlog'i yaqinidan topilgan bu ustaxona paleolitning o'rta va so'ngi bosqichi, mezolit, neolit davrlariga mansub bo'lib, uzoq davrlar mobaynida qurolsoz ustalarning birlamchi qurol yasash makoni bo'lib xizmat qiladi. Uchtutliklar yangi tosh davrida mehnat qurollari yasash uchun xom ashyo qidirib shaxtalar qaziganlar. Bu jarayon nafaqat O'zbekiston hududida balqi, O'rta Osiyoda ko'zga tashlanadigan birinchi jarayon hisoblanadi.

Uchtut va Ijond yodgorliklar kompleksini chaqmoqtosh xomashyosini topish uslubiga asoslanib, uch xil ob'yektlarga bo'lingan. Ulardan ikkitasi xomashyoni qazib olish bilan bog'liq konlar, bittasi mehnat qurollari ishlab chiqarish ustaxonasi bo'lgan.



Uchtut shaxtalari asosan neolit davriga tegishli bo‘lib, ularning 100 dan ortiq izlari Uchtut qishlog‘i yaqinida Voush qoyalarida joylashgan.

T.Mirsaatovning taxminiga qaragandashaxta tubidan olingan xomashyodan darhol qurollar yasalmasa toshlar quyoshga chiqqach uning nomi qochib qattiqlashadi va mehnat qurollari yasash murakkablashadi[3].

Agar masalaga kengroq, tarixiy tahlil nuqtai nazaridan qaralsa, biz neolit davrida yuz bergan yana bir ijtimoiy-iqtisodiy tub o‘zgarishlarni anglab yetgan bo‘lamiz, ya’ni tog‘ sanoatida ixtisoslashgan mehnat taksimotiga duch kelamiz. Xomashyo qazib olish professional kasbi-koriga aylangan shaxtyorlar o‘z xaridorlariga sifatli mahsulot yetishtirish maqsadida ma’lum miqdor xomashyo zaxiralarini saqlagan.

Zarafshon vodiysining Navoiy viloyati Karmana rayonining Uchtut va Ijond qishloqlari yaqinida olib borilgan arxeologik qidiruv ishlari davomida yangi soha-tog‘ sanoati bilan bog‘liq xomashyo ishlab chiqarish ob‘yektlari ochildi. Ular Voush tog‘ining paleogen yotqiziqlari ustida qadimgi tosh(paleolit) davrida tashkil topib, mezolit davrida davom etgan tosh ustaxonalari va neolit davrining shaxtalari bo‘lib, bu ob‘yektlar Uchtut shaxtalari nomi bilan fan olamiga kirdi.

Uchtut shaxtalarini o‘rganish«neolit inqilobi» bilan bog‘liq insoniyat tarixida, uning kundalik hayotida ilk bor tarkib topgan qashfiyotlardan biri bo‘lib, aynan shu davrdan boshlab ajdodlarimiz iqtisodiy va ijtimoiy hayotida tub o‘zgarishlar sodir bo‘la boshladi. Uchtut shaxtalarini o‘rganish jarayonida ajdodlar hayotida yuz bergan birinchi ijtimoiy mehnat taksimotining ilk kurtaklari neolit davridan boshlab nish uraboshlaydi.

Bu o‘zbek xalqi o‘tmish tarixida yuz bergan inqilobiy xodisa bo‘lib, uning jahon tarixi va sivilizasiyasiga qo‘shgan ulkan hissalarining debochasi edi.

O‘rta Osiyoning cho‘l zonalaridagi daryolar va ko‘llarning keng tarqalgan quruq kanallari atrofida ham tosh davri aholisi keng joylashgan. Qadimgi davrlarda bu yerdagi iqlim ibtidoiy populyasiyalar uchun qulay bo‘lgan[4]. Mezolit davri oxiri va neolit davri boshlarida (miloddan avvalgi 10-8 ming yil) aholi sonini ko‘payishi natijasida manzilgohlar soni ortib boradi. Bu davrlarda nafaqat Buxoro vohasining tog‘lik hududlari o‘zlashtirildi, balki vohaning g‘arbiy qismi Zarafshonning quyi havzalari ham ovchi qabilalar e‘tiboridan chetda qolmadi. Qadimda Buxoro vohasining g‘arbiy qismi Zarafshonning toshqin suvlaridan hosil bo‘lgan ko‘l va botqoqliklardan iborat bo‘lib, ular qalin butazor, chakalakzor va to‘qayzorlar bilan qoplangan. Tosh davri insoniyatini Zarafshonning quyi havzalaridagi hayvonotga boy tabiiy chakalakzorlar va baliqqa serob ko‘llar o‘ziga tortdi. Aholi bu hududlarni o‘zlashtira boshladi. Buxoro vohasining g‘arbiy qismlarida ham tosh davri ayniqsa, neolit davri qizg‘in kechadi. Zarafshonning qadimgi o‘zani Moxondaryo Qorako‘l tumani orqali Qizilqumga o‘tib Amudaryoga quyilgan. Natijada bu joylarda ovchilar, baliqchilarning dastlabki manzilgohlari paydo bo‘lgan. Shuning uchun ham Quyi Zarafshon hududi va uning atrofidan topib o‘rganilgan tosh davri makonlari asosan suv havzalari bo‘yidan topilgan[5]. Suv havzalarining joylarini o‘zgartirib turish oqibatida odamlar qo‘noq va qo‘nalg‘alarini ham o‘zgartirib turishga majbur bo‘lganlar. Neolit davriga oid bu qo‘nalg‘alar Katta Tuzkonning shimoli va shimoli-sharqiy tomoniga joylashgan bo‘lib, ko‘l bo‘yiga qurilgani uchun bir tizimda, bir qatorda joylashgan[6].

Zarafshon toshqini tufayli hosil bo‘lgan va dengizdek keng maydonga yoyilgan, hozirda esa Moxanko‘l, Zamonboboko‘li, Qichik Tuzkon, Katta Tuzkon, Chuqur ko‘l, Parsangko‘l, Laxliko‘l va Qorong‘i sho‘r deb nomlangan ibtidoiy «suv omborlari»ni qum tepalari bosib, ular keng sho‘rxok, pastqam joylarga aylangan[7], ularning qirg‘oqlarida neolit davrining turar-joy izlari topilgan[8].

Mezolit va neolit davrlarida global iqlim o‘zgarishi sodir bo‘lib, mintaqaviy va mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan qurg‘oqchilikni keltirib chiqargan[9]. Natijada aholi suv havzalariga qarab siljiydi. Buxoro vohasining g‘arbiy qismida hayot ancha gavjumlashadi. Mahalliy aholi orasida Katta Tuzkon, Kichik Tuzkon, Qorangi sho‘r nomlari bilan ataluvchi qo‘l sohillarida insoniyat tomonidan keng



o'zlashtiriladi[10]. Shuning uchun ham bu yerlardan neolit davriga oid bir qancha manzilgohlar topib o'rganilgan[11]. Afsuki, ularning deyarli barchasida madaniy qatlamlar saqlanmagan.

Manzilgohlarning markaziy qismida materiallar uyumi qalashib yotganligi kuzatilgan. Arxeologik kuzatuvlarga ko'ra, manzilgohlarning barchasi mavsumiy xarakterga ega bo'lib, ularning joyini tez-tez almashib turishi ko'l sohili suvlarining o'zgarib turishiga bog'liq edi. Shuning uchun baliq ovi bilan shug'ullangan urug' jamoalarining mavsumiy manzilgohlarida tegishli madaniy qatlamlar paydo bo'lib ulgurmay, turar-joy manzillari o'zgarib turgan. Agar manzilgohni suv toshqini davrida bir necha bor loyqa suv bosib ulgurgan bo'lsa, ya'ni uning ustida qalin balchiq hosil bo'lgan bo'lsa, u holda madaniy qatlamning qalin loyqa ostida saqlanib qolishiga umid qilsa bo'ladi. Ammo ularni topish ham oson kechmaydi.

Kaltaminor madaniyatining<sup>1</sup> Quyi Zarafshon yodgorliklarini o'rganish bilan muntazam shug'ullanib kelgan arxeolog O'.Islomov Katta Tuzkon yodgorliklari majmuasida, ikki punktda madaniy qatlam saqlanganligini aniqlashga muvassar bo'lgan. Ular Darbozaqir I [12] va Darbozaqir II [13] yodgorliklari edi. Ikki qir oralig'idagi tor yo'lak, ya'ni Katta Tuzkon ko'lidan shimoliy g'arbda chiqish joyida qir mavjud. Shu qirni kesib o'tgan tor yo'lak orqali aholi ko'l yoqasiga chiqqan. Aynan shu joy aholi tomonidan "Darvozaqir" deb yuritilgan shuning uchun ham manzilgohga Darbozaqir nomi berilgan[14].

Katta Tuzkon topilmalari ovchilar va baliqchilarning neolit madaniyati bilan xarakterlangan. Ularning qo'shni hududlardagi Kaltaminor majmualariga to'liq o'xshashligi tosh qurollarining shakli va nisbatlarida namoyon bo'ladi. Tuzkon yodgorliklarining pastki xronologik chegarasi radiokarbon usuli bilan miloddan avvalgi 4-ming yillikning boshlariga to'g'ri kelgan. Uning yuqori chegarasi miloddan avvalgi 3 ming yillik oxirlariga to'g'ri keladi. Neolit davridagi Zarafshonning quyi oqimi aholisining asosiy iqtisodiy faoliyati ov va baliq ovi edi. Buni nafaqat aholi punktlari daryolar va ko'llar bo'yida joylashganligi, balki qazish jarayonida topilgan hayvonlarning suyak qoldiqlari va tosh qurollarining turlari tasdiqlagan. Topilmalar orasida toshdan ishlangan yorg'uchoq, don bo'laklari va o'roqning mavjudligi, ehtimol mahalliy sharoitda dehqonchilikning vujudga kelishi haqidagi xulosani ilgari surishga xizmat qilgan[15]. Lekin, Tuzkon atrofini tadqiq qilgan Ya.G'ulomov, O'.Islomov va A.Asqarovlarning fikricha Quyi Zarafshonning eneolit jamoalari asosan ovchilik va baliqchilik bilan shug'illangan, topilgan o'roq va yorg'uchoq kabi qurollardan doimiy dehqonchilikdan emas balki, ildizlarni, quruq mevalarni, yovvoyi arpa, bug'doy va boshoqli ekinliklarni yig'ish uchun foydalanilgan[16]. Zero, etnografik ma'lumotlardan bilishimiz mumkinki bunday qurollardan termachilik bilan shug'illangan, hali dehqonchilikdan xabari yoq qabilalar ham foydalangan[17].

Darbozaqir makonidan topilgan xilma-xil ashyoviy materiallarning tahlili aholining iqtisodiy-ijtimoiy hayotida ovchilik ayniqsa, baliqchi ovchilik bilan istiqomat qiluvchi aholi yashaganligidan dalolat beradi. Manzilgohdan har xil hayvonlarning va qushlarning suyak qoldiqlarining topilganligi ov qilishning o'z ahamiyatini yo'qotmaganligini ko'rsatadi. Chaqmoqtoshdan yasalgan mikrohit pichoq, qirg'ich, bigiz, yog'och o'yish qurollari, o'q-yoy uchlari, parmalash qurollari, bolg'a, toshboltalar kundalik hayotda toshdan yasalgan mehnat qurollari muhim ahamiyat kasb etganligini isbotlaydi. Darbozaqirda qazilma ishlarini olib borgan O'. Islomov sopol siniqlari sirtiga ishlangan boy va sodda naqshlarga qarab, ushbu manzilgoh Zarafshon quyi havzasida o'rganilgan Kaltaminor madaniyati yodgorliklari orasida eng qadimiysi bo'lsa kerak, degan xulosaga keladi[18].

Kaltaminor madaniyatiga tegishli bu yodgorliklar tosh qurollarning ishlash texnikasi, tiplari, sopol idishlarining shakli va naqshi bo'yicha uch etapga bo'lingan.

---

<sup>1</sup> Kaltaminor madaniyatiga oid dastlabki yodgorlik Xorazmning Kaltaminor qalasi yaqinidan topilgani uchun shu nom berilgan. Kaltaminor madaniyati azolari Zarafshon daryosining quyi oqimiga tarqaganligini Buxoro vohasida olib borilgan arxeologik tadqiqotlardan bilishimiz mumkin.



- Kaltaminor madaniyatining ilk bosqichi. Miloddan avvalgi 4-mingyillikka to'g'ri keladi. Bu davrda Amudaryo va Zarafshon daryolarining ayrim joylarida kaltaminorlar madaniyati shakllanadi.
- Kaltaminor madaniyatining rivojlangan bosqichi. Miloddan avvalgi 3-mingyillikning birinchi yarmiga to'g'ri keladi. Bu davrda Amudaryo va Zarafshondaryosining quyi oqimidagi barcha hududlariga keng tarqaydi.
- Kaltaminor madaniyatining so'ngi bosqichi. Miloddan avvalgi 3-mingyillikning so'ngi. Bu davrda ibtidoiy ovchilik negizida asta sekinlik bilan chorvachilikka o'tila boshlanadi. Aholi Amudaryo va Zarafshonning irmoqlari bo'yida yashay boshlaydi. Bu esa keyinchalik ibtidoiy dehqonchilik xo'jaligini shakllantira boshlaydi[19].

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Quyi Zarafshon mintaqasi aholi tomonidan o'zlashtirilishi, uning kundalik mashg'ulotlari va xo'jalik shakllari bilan bog'liq bo'lgan. Chunki odamlar o'zlari yashashi uchun qulay tabiiy sharoit, o'simlik va hayvonot dunyosiga boy yerlarni o'zlashtirishga intilganlar. Quyi Zarafshon mintaqasida bunday jarayonlar tosh davrining paleolit va mezolit davrlarida nisbatan sekin va tor hududda kechgan bo'lsada, neolit davrda vohani o'zlashtirish jarayonlari faollashdi. Neolit davri ovchilik, baliqchilik, termachilik va qisman ilk ziroatchilik bilan kun kechirgan urug' jamoalari Quyi Zarafshon mintaqasining katta hududiga kelib joylashdi. Natijada neolit davri jamoalarining makonlar soni vohada keskin ortdi. Bu makonlarning o'rganilishi Quyi Zarafshon mintaqasida tosh davri antropogen landshaftini rivojlanishi va jamoalarning vohaning turli geografik hududlarida keng yoyilishidan guvohlik beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Касымов М.Р. Кремнёвая мастерская у кишлака Учтут в районе горы Каратау Бухарской области (По материалам археологической экспедиции). Научные работы и сообщения. Кн.6, Ташкент,1963.
2. Аскарлов А.А. Бухоронинг ибтидоий давр тарихидан лавҳалар. Тошкент:Фан,1973. -Б.5.
3. Мирсаатов Т. Горные разработки эпохи камня. Ташкент-1977.-С.33.
4. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. -М.,1962. -С.321.
5. Тошкенбоев Н. Бухоронинг энг қадимги даври тарихидан. Инсониятнинг илмий ва маданий мероси – учинчи минг йилликка. Бухоро ва Хива шаҳарларининг 2500 йиллигига бағишланган халқаро симпозиум тезислари. 1997 йил 18-20 октябрь. Бухоро-Хива. Тошкент,1997. Б.9-10.
6. Исломов Ў.И. Қадим Бухоро воҳасида илк хўжалик фаолияти кўринишлари. Инсониятнинг илмий ва маданий мероси – учинчи минг йилликка. Бухоро ва Хива шаҳарларининг 2500 йиллигига бағишланган халқаро симпозиум тезислари. 1997 йил 18-20 октябрь. Бухоро-Хива. -Тошкент, 1997. –Б.12-14.
7. Аскарлов А. Бухоронинг ибтидоий давр тарихидан лавҳалар. -Тошкент,1973.-Б.10.
8. Гульямов Я. Г. Исследование исторической гидрографии низовьев Кашкадарьи и Зарафшана. ИМКУ. Вып.6. –Ташкент,1965.-С.17-22.
9. Francfort Н.Р. Lecomte О. Irrigation et societe en Asie Centrale des origines a l'epoque achemenide. Ann. Hist. Sci. Soc. 3. 2002.
10. Гульямов Я.Г. Археологические работы к западу от т Бухарского оазиса. Тр. Ин-та Истории и археологии АН Республики Узбекистан. Вып.8, Ташкент,1956; Он же, Исследование исторической гидрографии низовьев Кашкадарьи. ИМКУ. вып.6. Ташкент-1965;



- Мухамеджанов А.Р. К изучению древнего русла Махандарьи. ИМКУ. вып. 5, Ташкент,1964; Гулямов Я.Г., Исламов У., Асқаров А. Первобытная культура в низовьях Зарафшана. Ташкент,1966.
11. Асқаров А.А. Бухоронинг ибтидоий давр тарихидан лавҳалар. -Тошкент:Фан,1973. -Б.11.
  12. Гулямов Я.Г., Исламов У., Асқаров А. Первобытная культура в низовьях Зарафшана. Ташкент,1966. -С. 23-38.
  13. Гулямов Я.Г., Исламов У., Асқаров А. Первобытная культура в низовьях Зарафшана. Ташкент,1966. -С.38-72.
  14. Асқаров А.А. Бухоронинг ибтидоий давр тарихидан лавҳалар. Тошкент:Фан,1973. -Б.11.
  15. Коробкова Г.Ф. Орудия труда и хозяйство неолитических племен Средней Азии// МИА. 1981. -№158.-С.180-181.
  16. Гулямов Я.Г., Исламов У., Асқаров А. Первобытная культура в низовьях Зарафшана. - Ташкент,1966.-С.87-88, 90.
  17. Сағдуллаев А.С, Холматов Н.Ў., Абдуллаев Ў.И., Матёқубов Х.Х., Шайдуллаев А.Ш., Тоғаев Ж.Э., Маткаримов Х.О., Юсупов А.Ш. Марказий Осиёда тарихий-маданий вилоятларнинг шаклланиши ва этник географияси муаммолари.-Тошкент: Университет,2020.-Б.21.
  18. Гулямов Я.Г., Исламов У., Асқаров А. Первобытная культура в низовьях Зарафшана.– Ташкент,1966.-С.43.
  19. Асқаров А.А. Бухоронинг ибтидоий давр тарихидан лавҳалар. Тошкент:Фан,1973. -Б.15.
  20. Ochilov Alisher. "The Role of Zamanbaba Culture in The Social and Economic History of Bukhara Oasis During Bronze Age." CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY 2.4 (2021): 42-47.
  21. OCHILOV, Alisher. "JEWELRYC TRADITION IS A SOURCE OF STUDY OF BUKHARA HISTORY." Bayterek Uluslararası Akademik Araştırmalar Dergisi 1.1: 105-116.
  22. Ochilov, A. T. "DATING OF THE ZAMANBABA CULTURE: ASED ON ARCHAEOLOGICAL SOURCES." Theoretical & Applied Science 12 (2019): 589-591.
  23. Очилов, Алишер Тўлис Ўғли. "БУХОРО ВОҲАСИ ШАКЛЛАНИШИДА ЗАРАФШОН ДАРЁСИНИНГ ЎРНИ ВА ВОҲА ТАРИХИЙ ГЕОГРАФИЯСИГА ДОИР АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР." Scientific progress 1.6 (2021): 933-938.
  24. Ochilov A. Бухоро воҳасида олиб борилган илк археологик тадқиқотлар //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 4. – №. 4.
  25. Ochilov A. Бухоро воҳасининг қадимги антропоген ландшафтида Сармишсой дарасининг тутган ўрни //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 4. – №. 4.
  26. Ochilov A. XIX асрдаги чет эл сайёҳлари асарларида Бухоро воҳаси маданиятининг ёритилиши //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 4. – №. 4.
  27. Очилов А. Т., Жўраев Н. БУХОРО ВОҲАСИ АРХЕОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАРИДА ҲУНАРМАНДЧИЛИК ВА САВДО АЛОҚАЛАРИ ТАРИХИ //TA'LIM VA RIVOJLANISH TANLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2023. – Т. 3. – №. 1. – С. 11-14.
  28. Очилов А. Т. Ў., Салимова З. Ҳ. Қ. БУХОРО ВОҲАСИНИНГ ТАРИХИЙ ГЕОГРАФИЯСИ ШАКЛЛАНИШИДА ЗАРАФШОН ДАРЁСИНИНГ ЎРНИ //Scientific progress. – 2022. – Т. 3. – №. 10. – С. 86-91.